

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.V.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YANGIBOYEV ELMUROD CHORSHANBIYEVICH

**QASHQADARYO VILOYATI SUDRALIB YURUVCHILARINING
FAUNASI, EKOLOGIYASI VA AHAMIYATI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 598.11 (2.11; 2.13; 2;16; 2.18; 3.6; 3;7; 5.3), 598.32.4

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Yangiboyev Elmurod Chorshanbiyevich

Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining faunasi, ekologiyasi va
ahamiyati 3

Yangiboyev Elmurod Chorshanbiyevich

Fauna, ecology and importance of reptiles of Kashkadarya region 21

Yangiboyev Elmurod Chorshanbiyevich

Фауна, экология и значение пресмыкающиеся Кашкадаринской
области..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 43

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.V.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YANGIBOYEV ELMUROD CHORSHANBIYEVICH

**QASHQADARYO VILOYATI SUDRALIB YURUVCHILARINING
FAUNASI, EKOLOGIYASI VA AHAMIYATI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/B643 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.izooology.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Matnazar Shomurotovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Azimov Djalaliddin Azimovich
Biologiya fanlari doktori, akademik

Jabborov Abdurashid Raimovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.52.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "12" iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232 b-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65; faks: (+99871) 289-10-60; E-mail: zoology@academy.uz)

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1716-AR raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232 b- uy. Tel.: (+99871) 289-04-65

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "30" may kuni tarqatildi.
(2024-yil "30" maydagi № 3-raqamli ryestr bayonnomasi).



B.R. Xolmatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, b.f.d., professor

G.S. Mirzayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

A.E. Kuchboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholi sonining jadal ortib borishi, turli xil xo‘jalik maqsadlari uchun o‘zlashtirilgan hududlar maydonining kengayishi, aholi yashash komplekslari va ishlab chiqarish obyektlarining qurilishi natijasida hududlar infrastrukturasi o‘zgarishi, neft-gaz va boshqa qazilma sanoati tarmoqlarining rivojlanishi sudralib yuruvchilar xilma-xilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, tabiiy landshaftlarning buzilishi sudralib yuruvchilarning yashash joylarining qisqarishi, sonining kamayishi va zaif turlarning yo‘q bo‘lib ketishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Shunga ko‘ra, biologik xilma-xillikning komponenti va resursi bo‘lgan sudralib yuruvchilarni saqlab qolish maqsadida ularning populyatsiyalari holatini baholash va ularning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash, noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni muhofaza qilish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda sudralib yuruvchilar xilma-xilligini o‘rganish, turli omillar ta’sirida ularning tabiiy va antropogen landshaftlarda tarqalishini aniqlash hamda kamayib va yo‘qolib ketayotgan turlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan sudralib yuruvchilar faunasini tadqiq etish, ekotizimlardagi zamonaviy tarqalish xususiyatlarini aniqlash, muhofaza qilish chora-tadbirlarini va bioresurs sifatida sudralib yuruvchilardan oqilona foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish va saqlab qolishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda atrof-muhitni va biologik xilma-xillikni saqlash hamda ekotizim barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan tabiiy ekotizimlar barqarorligini ta’minlash, hayvonlarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida¹ “...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta’minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur’atlarini pasaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash” kabi vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining faunasi bioxilma-xilligini aniqlash, ular tarqalishiga ekologik omillarning ta’sirini baholash, sudralib yuruvchilarning yangi muhitga munosabatini, inson faoliyatining sudralib yuruvchi hayvonlarga ta’sirini aniqlash hamda kamyob, endemik va muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.06.2019-yildagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

yil 7-noyabrda 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi, 2019-yil 5-sentyabrda 737-son "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda olib borilgan ilmiy izlanishlarga misol qilib I.N. Laurenti (1768), A.M. Dumeril va G. Bibron (1837-1854), A.E. Brem (1869), K.P. Shmidt (1922), R.F. Mertens (1929), Y. Hongue (2014), P. Alessandro (2014), va R. N. Jendrian (2020) ishlarini ko'rsatish mumkin.

Shulardan MDH davlatlarida ilmiy izlanishlarga P.S. Pallas (1771), A.A. Shtraux va A.M. Nikolskiy (1895-1905), P.V. Terentev va S.A. Chernov (1930-1954), I.D. Yakovleva (1964), N.N. Sherbak (1966), A.G. Bannikov (1977), S.A. Said-Aliyev (1979), Ch. Ataev (1985), T.S. Sattarov (1993), N.B. Ananeva va b. (2004), K.D. Milto (2007), A.N. Gneteva (2020) va A. A. Kidovlar (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Respublikamiz hududida sudralib yuruvchilarni o'rganish asosan o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Ilk asarlarga misol qilib taniqli zoolog olim T.Z. Zohidov (1938, 1971) va O.P. Bogdanovning (1961) ilmiy izlanishlarini va asarlarini ta'kidlab o'tish joiz, Bundan tashqari E.V. Vashetko (1970-2020), T. Yadgarov (1973), Z.Y. Kamalova (1978), D.A. Bondarenko (1994), Y.A. Chikin (2001) E.A. Peregontsev (2017) va F.Q. Jumayev (2022) kabi olimlar tomonidan qator izlanishlar olib borilgan.

Sudralib yuruvchilarni o'rganish maqsadida Qashqadaryo viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar asosan R.N. Meklenbursev (1948), V.P. Karpenko (1963-1965) va D.A. Bondarenko (1994) tomonidan olib borilgan.

Biroq, ushbu tadqiqot ishlari Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining tur tarkibi, ekologik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Shunga ko'ra sudralib yuruvchilarning tur tarkibini aniqlash, muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish hamda ekologik xususiyatlarini ochib berish muhim ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti Zoologiya kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston hayvonot olami bioxilma-xilligini o'rganish va muhofaza qilish" (2020-2022) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan sudralib yuruvchilarning tur tarkibi va ekologik xususiyatlarini aniqlash, noyob hamda kamayib borayotgan turlarning muhofaza choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

Qashqadaryo viloyati hududlarida tarqalgan sudralib yuruvchilarining tur tarkibini aniqlash;

Viloyatning turli biotoplarida sudralib yuruvchilar tarqalishini o'rganish, faunasiga zamonaviy usullar orqali baho berish;

Viloyat sudralib yuruvchilarning ekologik holatini o'rganish va antropogen omillarning turlar holatiga ta'sir darajasini baholash;

Sudralib yuruvchilarning ahamiyatini o'rganish hamda noyob va kamayib borayotgan turlarning muhofazalashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatida tarqalgan sudralib yuruvchi hayvonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Qashqadaryo viloyatida tarqalgan sudralib yuruvchilar faunasining zamonaviy tarkibi, tarqalishi, ekologik xususiyatlari, soni, inson faoliyatining ta'siri va turlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida Zoologik, gerpetologik, ekologik, biometrik, geometrik-morfologiya va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilari zamonaviy holati tahlil qilinib, 2 turkum, 12 oila, 23 urug'ga mansub 35 tur aniqlangan;

sudralib yuruvchilardan - *Eremias nigrocellata* turi Qashqadaryo viloyati faunasi uchun ilk bor aniqlangan;

Qashqadaryo viloyati turli biotoplarida sudralib yuruvchilarning tarqalishiga ko'ra *Eremias velox* cho'l va adir biogeotsenozlari dominant turi, *Pseudopodus apodus* adir biogeotsenozi dominant turi hamda *Tenuidactylus fedtschenkoi* tog' biogeotsenozi dominant turi sifatida aniqlangan;

Qashqadaryo viloyatida *Eremias nigrocellata*, *Platyceps karelini*, *Echis carinatus*, *Lycodon striatus* va *Gloydius caraganus* zichligi kamayib borayotgan turlar ekanligi isbotlangan;

sudralib yuruvchilarning morfologik-geometrik belgilari asosida zamonaviy dasturlar yordamida Testudinidae, Lacertidae, Colubridae va Psammophiidae oilalariga tegishli turlarning matematik modellari (matrikslari) yaratilgan;

viloyat hududida tarqalgan noyob va kamayib borayotgan *Testudo horsfieldii*, *Varanus griseus*, *Eryx tataricus*, va *Naja oxiana* turlaridan noqonuniy foydalanilishning tur holatiga salbiy ta'siri ochib berilgan;

Qashqadaryo viloyat hududida *Testudo horsfieldii horsfieldii* va *Testudo horsfieldii bogdanovi* kenja tur vakillariga morfologik jihatdan o'xshash individlar tarqalganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining hozirdagi ekologik holatini aniqlashda zamonaviy dasturlardan foydalanilgan va shu orqali ulardagi o'zgarishlar aniqlanib, turlarga tashqi ta'sirlar va antropogen omillarning bevosita va bilvosita ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. *Phrynocephalus mystaceus*, *Eremias grammica* va *Macrovipera lebetinus* turlarini neft va gaz qazib olish inshootlari qurilishdan oldin boshqa mos

yashash muhitiga ko‘chirish maqsadga muvofiqligi aniqlangan;

21 tur sudralib yuruvchilardan zardob olishda, xalq tabobatida, inson iste’molida va ko‘ngil ochar vosita, aksessuar va uy hayvoni sifatida foydalanilishi aniqlangan;

sudralib yuruvchilarning 11350 individlari sanoqdan o‘tkazilib, 2 turkum, 12 oilaga mansub 34 turning kadastrini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan zoologik, gerpetologik usul va yondashuvlar asosida olingan tajriba natijalarini nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, morfometrik ma’lumotlarni zamonaviy dasturlar asosida (Past 4.10; Microsoft Office Excel, 2010; EXLSTAT 2010, Morpho J; TPSuntil64; TPS dig264;) statistik tahlil qilingani, dissertatsiya natijalari xorijiy jurnallarda chop etilganligi hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qashqadaryo viloyatining turli biotoplarida sudralib yuruvchilarning turlar tarkibi aniqlanganligi, turlar tarkibi morfologik jihatdan tahlil qilinganligi, tarqalish xususiyatlari tavsiflanganligi, hududda sodir bo‘layotgan antropogen omillarning sudralib yuruvchilar faunasiga ta’sirining o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo viloyatida tarqalgan sudralib yuruvchilarning kadastrini yuritish, noyob va kamayib borayotgan turlarning tarqalish hududlarini aniqlash hamda muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, sudralib yuruvchilar faunasi tur tarkibini zamonaviy usullar orqali baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining faunasi, ekologiyasi va ahamiyati bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qashqadaryo viloyatida tarqalgan sudralib yuruvchilarning 16 urug‘ga mansub 22 turdan iborat 27 nusxa namunalari respublikada yetakchi bo‘lgan “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2022-yil 19-sentyabrdagi 4/1255-2292-son ma’lumotnomasi), Natijada, namunalar Qashqadaryo viloyatida uchraydigan sudralib yuruvchi hayvon turlari fondini boyitgan va ular populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholash hamda kadastr ma’lumotlarini tayyorlash imkonini bergan.

Qashqadaryo viloyatda sudralib yuruvchilar faunasining xilma-xilligini aniqlash va zamonaviy holatiga baho berish, kadastrini tuzish yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Qashqadaryo viloyati boshqarmasida amaliyotga joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi 2022-yil 13-oktyabrdagi 03-02/7-2224-son ma’lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo viloyatida uchraydigan sudralib yuruvchi hayvon turlari populyatsiyalari tarqalishining zamonaviy holatini baholash, muhofaza etish choralari ishlab chiqish hamda kadastr ma’lumotlarini tayyorlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 1 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sudralib yuruvchilarining o'rganilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha tarixi”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekistonda, jumladan Qashqadaryoda sudralib yuruvchilar turlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarining tavsifi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining tur tarkibi, tarqalishi, ko'payishi, oziqlanishi va ahamiyatiga tegishli materiallar tahlil qilingan. Mavjud materiallar sudralib yuruvchilarning hozirgi holati va ekologik xususiyatlari to'g'risida xulosalar chiqarish uchun yetarli emasligi aniqlangan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot o'tkazilgan hududning tabiiy sharoitlari, tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyati bo'ylab turli joylardan 11 ta tadqiqot maydoni tanlab olindi (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyati bo'ylab tanlab olingan hududlar joylashuvi

Tanlangan hudud kodi	O'tkazilgan marshrutlar soni	Marshrut uzunligi (km)	Koordinatasi (DD)	Dengiz sathidan balandligi (m)
Cho'l A	15/12	54.5/23.4	38,87823N 64,6523055E	260-350
Cho'l A1	6/6	42.6/18.8	39,4093125N 65,4394043E	300-350
Cho'l A2	3/5	28.4/9.7	38,7038689N 65,6629283E	350-370
Cho'l A3	3/4	23.2/10.7	38,9175431N 65,8450074E	400-460
Cho'l A4	4/4	35.1/14.3	39,0333184N 66,488481E	470-500
Adir B	3/3	20.8/8.5	38,3516947N 66,2818806E	760-830
Adir B1	18/21	44.9/18.5	38,5441079N 66,5810921E	850-1200
Adir B2	7/6	29.9/8.2	38,9022396N 67,121346E	1000-1500
Adir B3	4/4	24/9.8	39,2523159N 66,8198763E	1000-1300
Tog' C	13/9	39.5/17.1	38,4874046N 66,861257E	1800-2200
Tog' C1	7/3	28.6/8.1	38,7078356N 67,2152729E	2300-2700


Dala tadqiqotlarida asosan marshrut va statsionar medotlardan foydalanildi. Tanlab olingan hududlarda umumiy uzunligi 516.1 km (369 km kunduzgi va 147.1 km tungi) bo'lgan 83 ta kunduzgi va 77 ta tungi marshrut o'tkazildi.

Marshrut (transekt): Marshrutlar Google Earth Pro dasturi orqali belgilandi va koordinatalar olindi. Marshrutlar ikki turda, S.T. Bukland metodiga asosan (Bukland va b., 2001) uzun transekt va qisqa transekt farqlanadi.

Marshrutlarda populyatsiya zichligini aniqlashda asosan quyidagi FMP (Formozov-Malyshev-Pereleshin) (Formozov, 1932, Malyshev, 1936, Pereleshin, 1950) formulasidan foydalanildi (1 formula)

$$D = \frac{\pi}{2} \frac{S}{dm} \text{ yoki } D = \frac{1,57S}{dm} \quad (1)$$

D-hayvonlar populyatsiyasining zichligi, S-yo'llarning kesishishi soni; m-marshrut uzunligi (km); d – hayvonlarning kunlik sayohatining o'rtacha uzunligi (km).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati xaritasi

Sudralib yuruvchilarning yoshi va jinsini aniqlashda (Gibbons 1976). (Gibbons, 1972, Fitch va Henderson, 1977), (Blandhard va Finster, 1933, Schaefer, 1934) va zondlash (Fitch, 1987) usullaridan (ilonlarda) foydalanildi.

Sudralib yuruvchilarning tangachalari turga xos ravishda joylashish xususiyatiga ega. Ushbu tangachalarning joylashuv geometriyasidan Antigoni Kaliontzopoulou (2017) metodi orqali TPS64until va TPS264Dig dasturlarida belgilar matematik modellashirildi.

Biotoplarda sudralib yuruvchilar xilma-xilligini aniqlashda alfa (α), beta (β), gamma (γ) xilma-xillik R. H. Vittaker (1960) metodi orqali hisoblab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyati biotoplaridagi sudralib yuruvchilar faunasining turlar tarkibi va shakllanish xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida sudralib yuruvchilar faunasining turli ko'rsatkichlari o'rganilgan.

3.1. Qashqadaryo viloyati biotoplaridagi sudralib yuruvchilar faunasining turlar tarkibi va xilma-xillik ko'rsatkichlari. Qashqadaryo viloyati bo'ylab tanlab olingan 11 hududda 35 tur sudralib yuruvchilar qayt etildi, ular 2 turkum, 12 oila, 23 urug'ga mansubligi aniqlandi (2-jadval).

Tadqiqotlarimiz davomida Qashqadaryo viloyati hududi bo'ylab umumiy soni 11350 ta sudralib yuruvchi hayvon individini sanoqdan o'tkazildi. Butun viloyat bo'ylab hisoblanganda sudralib yuruvchilar turlar mo'lligi, ya'ni gamma xilma xillik $\gamma=35$ turga tengdir.

2-jadval


Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchi hayvonlarining turlar tarkibi

Oila	Urug'	Tur
Testudinidae	<i>Testudo</i>	<i>Testudo horsfieldii</i> (Gray, 1844)
Agamidae	<i>Phrynocephalus</i>	<i>Phrynocephalus helioscopus</i> (Pallas, 1771)
		<i>Phrynocephalus interscapularis</i> (Lichtenstein, 1856)
		<i>Phrynocephalus mystaceus</i> (Pallas, 1776)
	<i>Paralaudakia</i>	<i>Paralaudakia bochariensis</i> (Nikolsky, 1897)
		<i>Paralaudakia lehmanni</i> (Nikolsky, 1896)
	<i>Trapelus</i>	<i>Trapelus sanguinolentus</i> (Pallas, 1814)
Gekkonidae	<i>Crossobamon</i>	<i>Crossobamon eversmanni</i> (Wiegmann, 1834)
	<i>Tenuidactylus</i>	<i>Tenuidactylus caspius</i> (Eichwald, 1831)
		<i>Tenuidactylus fedtschenkoi</i> (Strauch, 1887)
		<i>Tenuidactylus bogdanovi</i> (Nazarov, Poyarkov, 2013)
	<i>Teratoscincus</i>	<i>Teratoscincus scincus</i> (Schlegel, 1858)
Lacertidae	<i>Eremias</i>	<i>Eremias grammica</i> (Lichtenstein, 1823)
		<i>Eremias intermedia</i> (Strauch, 1976)
		<i>Eremias lineolata</i> (Nikolsky, 1897)
		<i>Eremias nigrocellata</i> (Nikolsky, 1896)
		<i>Eremias velox</i> (Pallas, 1771)
		<i>Eremias regeli</i> (Bedriaga, 1905)
Scincidae	<i>Ablepharus</i>	<i>Ablepharus deserti</i> (Strauch, 1868)
		<i>Ablepharus pannonicus</i> (Lichtenstein, 1823)
	<i>Eumeces</i>	<i>Eumeces schneideri</i> (Daudin, 1802)
Varanidae	<i>Varanus</i>	<i>Varanus griseus</i> ssp. <i>caspius</i> (Eichwald 1831)
Anguidae	<i>Pseudopus</i>	<i>Pseudopus apodus</i> (Pallas, 1775)
Boidae	<i>Eryx</i>	<i>Eryx tataricus</i> (Lichtenstein, 1823)
Colubridae	<i>Platyceph</i>	<i>Platyceph karelini</i> (Brandt, 1838)
		<i>Platyceph rhodorhachis</i> (Jan, 1865)
	<i>Hemorrhois</i>	<i>Hemorrhois ravergeri</i> (Menetries, 1832)
	<i>Elaphe</i>	<i>Elaphe dione</i> (Pallas, 1773)
	<i>Lycodon</i>	<i>Lycodon striatus</i> ssp. <i>bicolor</i> (Nikolsky, 1903)
	<i>Natrix</i>	<i>Natrix tessellata</i> (Laurenti, 1768)
	<i>Psammophis</i>	<i>Psammophis lineolatus</i> (Brandt, 1838)
Elapidae	<i>Naja</i>	<i>Naja oxiana</i> (Eichwald, 1831)
Viperidae	<i>Echis</i>	<i>Echis carinatus</i> (Schneider, 1801)
	<i>Macrovipera</i>	<i>Macrovipera lebetinus</i> (Linnaeus, 1758)
	<i>Gloydius</i>	<i>Gloydius caraganus</i> (Eichwald, 1831)

Har bir hudud turlar xilma-xilligi indeksleri C. E. Shannon (1948), L. Brillouin (1962) metodlari va turlar mo'lligi indeksi R. Margalef (1958) metodi orqali shuningdek nisbiy xilma-xillik indeksi E. C. Pielou (1966) metodi orqali hisoblab chiqildi (2-jadval).

Cho'l A hudud biologik xilma-xilligi cho'l mintaqasi bo'yicha eng yuqori bo'lib 11 oila, 17 urug', 22 tur sudralib yuruvchilarni o'z ichiga oladi. Hududda *E. velox* (populyatsiya zichligi 0.62 ± 0.008 ind/ga), *E. grammica* (populyatsiya zichligi 0.57 ± 0.016 ind/ga), *E. intermedia* (populyatsiya zichligi 0.47 ± 0.012 ind/ga) dominant turlardir.

Shuningdek *E. lineolata* va *A. deserti* turlari ekologik holati ham yuqori hisoblandi. *T. caspius*, *P. karelini* va *N. oxiana* turlari populyatsiya zichligi holati ushbu hudud bo'yicha past ko'rsatkichda ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Turlarning holat regressiyasi bo'yicha taqsimlanishi

Adir B1 hududda 12 oila, 19 urug', 27 turga sudralib yuruvchilar qayt etildi. Dominant turlari quyidagilardir: *E. velox* (populyatsiya zichligi 1.58 ± 0.072 ind/ga), *T. bogdanovi* (populyatsiya zichligi 1.52 ± 0.12 ind/ga), *T. fedtschenkoi* (populyatsiya zichligi 1.285 ± 0.053 ind/ga), *P. apodus* (populyatsiya zichligi 1.57 ± 0.0301 ind/ga).

Hududda zichlik bo'yicha kam ko'rsatkichlar, *E. carinatus*, *E. nigrocellata*, *P. karelini* *G. caraganus* va *L. striatus* turlariga tegishlidir.

Tog' C hudud dengiz sathidan 1800-2200 metr balandlikdagi tog' mintaqasida joylashgan. Hududda 12 oila, 18 urug', 22 turga mansub sudralib yuruvchilar qayt etildi. Dominant turlari quyidagilardir: *E. velox* (populyatsiya zichligi 1.43 ± 0.045 ind/ga) va *P. apodus* (populyatsiya zichligi 1.39 ± 0.071 ind/ga).

Dominant turlardan tashqari, *T. fedtschenkoi* va *T. bogdanovi* turlari populyatsiya zichligi holati nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Hududda zichlik bo'yicha kam ko'rsatkichlar, *P. karelini*, va *G. caraganus* turlariga tegishlidir.

Umumiy Qashqadaryo viloyati bo'yicha *E. velox* (populyatsiya zichligi 0.84 ± 0.05 ind/ga) cho'l va adir biogeosenozlari dominant turi, *P. apodus* (populatsiya zichligi 1.39 ± 0.271 ind/ga) adir biogeosenozi dominant turi va *T. fedtschenkoi* (populyatsiya zichligi 0.732 ± 0.03 ind/ga) tog' biogeosenozi dominant turi sifatida qayt etildi. Shuningdek, ba'zi turlar populyatsiya zichligi kam bo'lsada lekin viloyat bo'ylab keng yashash muhitiga egadir. Ushbu turlar *H. ravergeri*, *T. sanguinolentus*, *N. tessellate*, *P. lineolatus*, *E. dione*, *P. rhodorhachis*, *P. lehmanni*, *T. horsfieldii* bo'lib, ular tadqiqot o'tkazilgan 11 ta biotoplarning kamida 8 tasida uchraydi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha umumiy holda zichlik bo'yicha kam ko'rsatkichlar, *E. nigrocellata*, *P. karelini*, *E. carinatus*, *L. striatus* va *G. caraganus* turlariga tegishlidir.

3.2. Qashqadaryo viloyati biotoplarida faunaning shakllanishi. Biotoplar kesimida xilma-xillik darajasi, turlar mo'lligi va dominant turlari aniqlangach, ushbu ma'lumotlar asosida har bir hudud faunasining o'xshashlik darajasini aniqlash va qaysi faunalar parallel yoki uzviy rivojlanib borganligini o'rganish maqsadida alfa xilma-xillik bo'yicha korrelyatsiya tahlili o'tkazildi. Tahlil natijalaridan Pearson koeffisienti (ρ) qiymati chiqarildi va shu qiymat orqali biotoplarning faunasi o'xshashlik va farqlanish holatini ko'rsatib berildi.


Tadqiqotlarimiz davomida viloyat biotoplari faunasining beta, zeta va qorong'i (dark) xilma-xilligi aniqlandi. M. Partel, R. Szava-Kovats, M. Zobel (2011) metodi bo'yicha qorong'i xilma-xillik tahliliga ko'ra, Afg'on litorinxi (*Lytorhynchus ridgewayi* Boulenger, 1887) Cho'l A, Cho'l A1, Adir B, Adir B1 va Tog' C hududlarda, Rang barang kaltakesak Cho'l A4 va Adir B3 hududlarda (*Eremias arguta* Pallas, 1773), deadimsimon chipor ilon (*Spalerosophis diadema* Schlegel, 1837) Cho'l A, Cho'l A1, Adir B, Adir B1, va Tog' C hududlarda va Ko'r ilon (*Xerotyphlops vermicularis* Merrem, 1820) Adir B1, Tog' C va Tog' C1 hududlarda uchrashini mumkinligi aniqlandi. Tahlilga ko'ra, Qashqadaryo viloyati reptiliyalari faunasi 35 tur emas 39 tur bo'lishi mumkin.

Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchi hayvonlarining xilma-xillik ko'rsatkichlari va indekslari

	Cho'1 A	Cho'1 A1	Cho'1 A2	Cho'1 A3	Cho'1 A4	Adir B	Adir B1	Adir B2	Adir B3	Tog' C	Tog' C1	Umumiy
Tur soni	22	20	18	12	9	12	27	18	17	22	10	35
Individlar	1434	1113	343	585	316	313	2547	1237	578	2371	513	11350
Dominantlik indeksi	0.08874	0.07794	0.1114	0.175	0.2206	0.1487	0.09544	0.1477	0.1476	0.1182	0.216	0.07679
Dominantlik quyi chegarasi	0.4114	0.3133	0.3563	0.4478	0.2294	0.2330	1.2820	0.6499	0.4605	1.2210	0.3034	0.6693
Simpson indeksi_1-D	0.9113	0.9221	0.8886	0.825	0.7794	0.8513	0.9046	0.8191	0.8524	0.8818	0.784	0.9232
Shannon–Veaver indeksi_H	2.612	2.664	2.373	2.046	1.682	2.09	2.699	2.058	2.25	2.444	1.757	2.935
Brillouin indeksi	2.567	2.612	2.265	1.987	1.62	1.997	2.666	2.022	2.175	2.416	1.704	2.924
Margalef turlar mo'illigi indeksi	2.888	2.709	2.398	1.883	1.216	1.914	3.433	2.107	2.517	2.703	1.601	3.533
Nisbiy xilma-xillik_J	0.8451	0.8894	0.8764	0.7976	0.8088	0.8412	0.8101	0.7423	0.7941	0.7907	0.7329	0.8323

Dissertatsiyaning “**Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining ekologik tavsifi, tarqalishi va ahamiyati**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida viloyat sudralib yuruvchilarining ekologiyasi, viloyat bo‘ylab turli muhitlarda tarqalishi, ahamiyati va hozirgi holati o‘rganilgan.


4.1. Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining ekologik tavsifi va tarqalishi. Sudralib yuruvchilar Qashqadaryo viloyati tarkibidagi uchta yirik biogeotsenozlar, ya’ni cho‘l, adir va tog‘ zonalarining butazorlar va yarim butazorlari, ochiq qumli maydonlari, to‘qay, suv ayrilishlar, qiyaliklar, o‘rmonlar va yaylovlari kabi biosenozlarida, shuningdek, sun’iy ekotizimlar va ularning atrofida o‘ziga xos tarqalishi o‘rganildi (3-rasm). Natijalarga ko‘ra sudralib yuruvchilarning ko‘pchilik qismi asosan cho‘l biogeosenozining to‘qay, buta va yarim butazorlarda, Adir biogeosenozining butazorlar va tekislik o‘tloqlarda tarqalgan. Shuningdek 23 tur sudralib yuruvchi turli zonalarda barpo etilgan sun’iy ekotizimlarni egallaganligi qayt etildi. 5 tur sudralib yuruvchi namlikka talabchan turlar sifatida qayt etildi.




3-rasm. Sudralib yuruvchilarning turli biosenozlarda taqsimlanishi

Tadqiqotimiz davomida, populyatsiyalar ustida morfologik belgilarni geometrik modellashtirish tahlili o‘tkazildi. O‘rta Osiyo cho‘l toshbaqasining geometrik modellashtirishda, A.K. Gnetova (2020) ilimiy ishida keltirilgan kenja turlarning belgilarini kuzatish orqali toshbaqalar karapaksning marginal 3, 6, va 8 qalqonchalar orasidagi kenglik masofalari nisbati turlicha bo‘lishiga e’tibor berildi va biometrik parametrlar sifatida qalqonlar joylashuvi geometriyasida 66 ta landmark (belgi qo‘yiladigan nuqta) tanlab olindi (4,5-rasmlar).


Turli biotoplardan olingan namunalar va 5 ta holotip kenja turlar matritsasi Morpho J dasturida tahlil qilindi. Tahlil jinslar bo‘yicha va kenja turlar bo‘yicha olib borildi. Jinslar bo‘yicha olingan tahlilda ajralish kuzatilmadi. Kenja turlar tahliliga ko‘ra viloyat hududida *T. h. horsfieldii* (Gray, 1844) va *T. h. bogdanovi* (Chkhikvadze, 2008) kenja tur vakillariga morfologik jihatdan o‘xshash individlar tarqalganligi aniqlandi (6-rasm).



4-rasm. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan toshbaqalarning morfologik farqlari (a- 38.626572N 66.625393E 24.04.2020, b-38.862923N 64.708734E 04.05.2021, c- 38.451082N 66.134629E 07.06.2021)



5-rasm. Toshbaqa karapaksining qalqonchalari 2D joylashuv matrissasi



6-rasm. Kenja turlar bo'yicha namunalarning morfologik taqsimlanishi

4.2. Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining ahamiyati va hozirgi holati. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan sudralib yuruvchilar iqtisodiy va meditsinada ahamiyatga ega 21 turi xalq tabobatida, ko'ngil ochar vosita, aksessuar va uy hayvoni sifatida va inson iste'molida foydalanilishi aniqlandi. Shuningdek aholi turar joylarida tarqalishga moslashgan gekkonlar oilasi vakillari hasharotlarni (jumladan pashshalar, chivinlar, suvaraklar v.b.) son jihatdan qisman bo'lsada cheklash orqali kasallik tashuvchi hashoarotlarga qarshi kurashda ma'lum darajada ahamiyatiga ega.


**Qashqadaryo viloyatida tarqalgan ba'zi sudralib yuruvchilarning
foydalanilishi**

No	Tur nomi	Iqtisodiy ahamiyatga ega turlar	Tibbiyotda (zadob olishda) ahamiyatga ega turlar	Tabobatda foydalaniladigan turlar	Ko'ngil ochar vosita, akssissuar va uy hayvoni sifatida foydalaniladigan turlar	Inson istemolida foydalaniladigan turlar
1	<i>T. horsfieldii</i>					
2	<i>Ph. helioscopus</i>					
3	<i>Ph. interscapularis</i>					
4	<i>Ph. mystaceus</i>					
5	<i>P. lehmanni</i>					
6	<i>T. sanguinolentus</i>					
7	<i>T. fedtschenkoi</i>					
8	<i>T. scincus</i>					
9	<i>E. grammica</i>					
10	<i>E. velox</i>					
11	<i>E. schneideri</i>					
12	<i>V. griseus</i>					
13	<i>P. apodus</i>					
14	<i>E. tataricus</i>					
15	<i>H. ravergeri</i>					
16	<i>E. dione</i>					
17	<i>N. tessellata</i>					
18	<i>N. oxiana</i>					
19	<i>E. carinatus</i>					
20	<i>M. lebetinus</i>					
21	<i>G. caraganus</i>					

(Izoh 1.: ■ -ahamiyat ega turlar, ■ -foydalanish yo'nalishi holatiga salbiy ta'sir etuvchi va + -foydalanish yo'nalishi holatiga qisman salbiy ta'sir etadigan turlar.)

Tadqiqotlar natijasida viloyat hududida tarqalgan sudralib yuruvchilarga hozirda ta'sir etayotgan antropogen omillar o'rganilib chiqildi. Natijada sudralib yuruvchilarga bevosita va bilvosita holatda aholi yashash hududining kengayishi, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi hududlarining o'zlashtirilishi, energiya ishlab chiqarish va konchilik, yo'l qurilishi, biologik resurs sifatida turlardan foydalanish,

ko'ngilochar vosita sifatida turlardan foydalanish va besabab o'ldirilish omillari ta'sir etishi aniqlandi va 5 balli shkalada baholanib tahlil qilindi. Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining ahamiyati va hozirgi holatidan kelib chiqib qo'riqlanadigan va alohida muhofazaga olingan hududlarni kengaytirish, o'zlashtirilayotgan yerlarni boshqarish, turlar sonini boshqarish va ma'lum turlarni pitomniklarda ko'paytirish usullarini ishlab chiqish, aholining sudralib yuruvchilar bilan munosabatini shakllantirish, turlardan foydalanishni qonuniy tartibga solish orqali noyob va kamayib borayotgan sudralib yuruvchilarning hozirgi holatini yaxshilanishi xulosa qilindi (7-rasm).



7-rasm. Sudralib yuruvchilarga ta'sir etayotgan antropogen omillar

XULOSALAR

“Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarining faunasi, ekologiyasi va ahamiyati” mavzusidagi biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilari 2 turkum, (Testudines, Squamata) 12 oila (Testudinidae, Agamidae, Gekkonidae, Lacertidae, Scincidae, Varanidae, Anguidae, Boidae, Colubridae, Psammophiidae, Elapidae, Viperidae) va 23 urug'ga mansub 35 turdan tashkil topgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyat faunasida *E. nigrocellata* turi ilk bor qayt etildi.

2. *E. velox* (populyatsiya zichligi 0.84 ± 0.05 ind/ga) cho'l va adir biogeotsenozlari dominant turi *P. apodus* (populyatsiya zichligi 1.39 ± 0.271 ind/ga) adir biogeotsenozi dominant turi va *T. fedtschenkoi* (populyatsiya zichligi 0.732 ± 0.03 ind/ga) tog' biogeotsenozi dominant turi sifatida qayt etildi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida son jihatdan eng kam uchraydigan turlar sifatida *E. nigrocellata*, *P. karelini*, *E. carinatus*, *L. striatus* va *G. caraganus* qayt etildi.

3. Biotoplar bo'yicha fauna farqlari beta xilma-xillik asosida Cho'l A va Cho'l A1 hududlar faunasi bo'lib 7%, Adir B2 va Adir B3 hududlar 9 %, Fothill B2 va Tog' C hududlar 16%, Fothill B3 va Tog' C hududlar 23%, Cho'l A va Cho'l A2 hududlar 22% farqlarga egadir.

4. Qorong'i xilma-xillik tahliliga ko'ra Qashqadaryo viloyatida *L. ridgewayi*, Cho'l A, Cho'l A1 Adir B, Adir B1 va Tog' C hududlarda, *E. arguta* Cho'l A4 va Adir B3 hududlarda, *S. diadema* Cho'l A, Cho'l A1, Adir B, Adir B1, va Tog' C hududlarda va *X. vermicularis* Adir B1, Tog' C va Tog' C1 hududlarda uchrashi mumkinligi aniqlandi.

5. Cho'l biogeotsenozining senozlari ya'ni butazorlari va yarim butazorlarida — 25 tur, ochiq qumli maydonlarida — 7 tur, to'qaylarida — 27 tur, adir biogeotsenozining suv ayrilishlarida va qiyaliklarida — 13 tur, efemer va efemeroid o'tloqlarida — 22 tur, butazorlarida — 28 tur, tog' biogeotsenozining archazorlar — 12 tur, qiyalik(jarlik) va suv ayrilishlarida — 18 tur va yaylovlarida — 10 tur shuningdek sun'iy ekotizimlarda va ularning atrofida — 23 tur, sudralib yuruvchilar uchrashi va 5 tur sudralib yuruvchilar namlik talabchanligi aniqlandi.

6. Qashqadaryo viloyat hududida *T. h. horsfieldii* va *T. h. bogdanovi* kenja tur vakillariga morfologik jihatdan o'xshash individlar tarqalgan bo'lib ular 5 ta arealda taqsimlanganligi aniqlandi.

7. Qashqadaryo viloyatda tarqalgan sudralib yuruvchilarining 21 turlaridan zardob olishda, xalq tabobatda, inson iste'molida va ko'ngil ochar vosita, aksessuar va uy hayvoni sifatida foydalanilishi aniqlandi.

8. Qashqadaryo viloyati hududidagi o'zlashtirilayotgan yerlarni maqsadli va yo'naltirilgan holda, ekologik ta'sir doirasi asosida boshqarish — 30 turning, turlar sonini boshqarish orqali ma'lum turlarni pitomniklarda ko'paytirish va tabiiy muhitga yillik reja tartibida qo'yib yuborish usullarini ishlab chiqish — 6 turlarning holatiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi.

AMALIY TAVSIYALAR

Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarni muhofaza etishda ularni limitlash omillar va ushbu omillarni to'xtatishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Antropogen omillarni kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyati sudralib yuruvchilarini muhofaza qilishda quyidagi chora-tadbirlarni tavsiya etildi.

-viloyat tabiiy landshaftlarida aholi turar joylari barpo etish, qishloq va suv xo'jaligi maydonlari va inshootlari barpo etishda obyektlarning turlarga ta'sir darajasini belgilovchi ekspert xulosasini olishni qonuniylashtirish nizomlarini qayta shakllantirish.

-neft va gaz qazib olish inshootlari qurilishdan oldin hududda mavjud *Ph. mystaceus*, *E. grammica* va *M. lebetinus* turlar vakillarini imkon darajasida boshqa mos yashash muhitiga ko'chirish.

-biologik resurs sifatida foydalaniladigan hozirda brakonyerlik tazyiqida bo'lgan 8 tur sudralib yuruvchilar noqonuniy ovlanishini nazoratga olish.

-mahalliy aholi ongida sudralib yuruvchilarga bo'lgan dunyo qarashni o'zgartirish va bunda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish hamda hududiy

tushuntirish ishlari olib borish.

-mas'ul tashkilotlar tomonidan monitoring o'tkazish va 5 yillik monitoring natijasida limitlash omillari dinamikasini statistik tahlil natijasini e'lon qilib borish.

-qonuniy tartibda pitomniklar tashkil etishni rag'batlantirish va yillik reja asosida tabiatga noyob tur vakillarini ko'paytirib qo'yib yuborish holatini nazorat qilish.

-sudralib yuruvchilarning turlarini pitomniklarda ko'paytirish va olingan nasllarni tabiatga qo'yib yuborishga qaratilgan volontyorlar asosidagi jamoa tashkilotlarini tuzish.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.02/30.12.2019.V.52.01 ON AWARD OF
SCIENTIFIC DEGREES AT THE INSTITUTE OF ZOOLOGY**

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

YANGIBOYEV ELMUROD CHOESHANBIYEVICH

**FAUNA, ECOLOGY AND IMPORTANCE OF REPTILES OF THE
KASHKADARYA REGION**

03.00.06 – Zoology

**DISSERTATION ABSTRACT FOR THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON BIOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2024

The title of the doctoral dissertation (PhD) has been registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan with registration numbers of B2021.3.PhD/B643

The dissertation has been carried out at the National university of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the webpage of the Scientific Council (www.izooology.uz) and on the website of “ZiyoNET” information educational portal (www.ziyo.net).

Scientific supervisor:

Rakhimov Matnazar Shomurotovich
Doctor of Biological Sciences, professor

Official opponents:

Azimov Djalaliddin Azimovich
Doctor of Biological Sciences, academic

Jabborov Abdurashid Raimovich
Doctor of Biological Sciences, professor

Leading organization:

Bukhara State University

The defense of the dissertation will take place on «12» june 2024 at 10⁰⁰ at the meeting of the Scientific council DSc.02/30.12.2019.V.52.01 in the Institute of zoology (Address: 232b Bogishamol Str., Tashkent, 100053, Uzbekiston, Conference hall of the Institute of Zoology. Tel: (+99871) 289-04-65; fax: (+99871) 289-10-60; E-mail: zoology@academy.uz).


The dissertation can be looked through in the Information Resource Center of the Institute of zoology (registration under №1716-AR). Address: 232b, Bogishamol str. Tashkent. Tel.: (+99871) 289-04-65. fax: (+99871) 289-10-60.


Abstract of the dissertation sent out on «30» may 2024.

(Protocol at the register №3 dated «30» may 2024).




B.R. Kholmatov
Chairman of the Scientific Council for
the awarding of scientific degrees,
Doctor of Biological science, Professor


G.S. Mirzayeva
The scientific secretary of the Scientific Council
for the awarding of scientific degrees,
Doctor of Biological science, Professor


A.E. Kuchboev
Chairman of the Scientific Seminar at
the Scientific Council awarding the scientific degrees,
Doctor of Biological science, Professor

INTRODUCTION(abstract to the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. Today, due to the rapid increase in the number of people worldwide, the expansion of the area of the territories used for various economic purposes, the changes in the infrastructure of the places as a result of the construction of residential complexes and production facilities, the development of the oil and gas and other fossil industries hurts the diversity of reptiles. In particular, the destruction of natural landscapes has negative consequences, such as the reduction of habitats of reptiles, the reduction of their numbers, and the extinction of vulnerable species. In order to preserve reptiles, to assess the state of their populations, and to determine their trends of change, to develop measures for the protection of rare and endangered species is of great scientific and practical importance.

In the world, research are being conducted on scientific studying the diversity of reptiles, determining their distribution in natural and anthropogenic landscapes under the influence of various factors, and on vulnerable and endangered species. In this regard, special attention is paid to studying reptile fauna, identifying the modern distribution features in ecosystems, and developing and preserving conservation measures, and ways of rational use of reptiles as bioresources.

In our republic, special attention is paid to the preservation of the environment and biological diversity, as well as to ensuring the stability of the ecosystem. In this regard, measures were developed, including ensuring the stability of natural ecosystems and conservation of rare and endangered species. In particular, in the strategy¹ for the preservation of biological diversity in the Republic of Uzbekistan for the period of 2019-2028, "...to ensure the preservation and sustainable use of biological diversity, the development and expansion of protected natural areas, the reduction of the rate of degradation of natural ecological systems, the restoration of rare and endangered species of animals and plants" tasks are defined. Based on these tasks, determine the biodiversity of the fauna of reptiles of the Kashkadarya region, assess the influence of environmental factors on their distribution, determine the reaction of reptiles to a new environment, the impact of human activities on reptiles, and develop measures to preserve rare, endemic and needs conservation species, holds scientific and practical significance.

This research work serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 30, 2019, No. PF-5863 "On Approval of the Concept of Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan until 2030", dated January 28, 2022, No. PF-60 "on the Development Strategy of New Uzbekistan for the period of 2022-2026", Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated November 7, 2018 No. 914 "on Maintenance of State recording, accounting of volume of use and State Cadastre of objects of Fauna and Flora", dated September

¹ Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, No. 484 dated 11.06.2019 "On approval of the strategy for the preservation of biological diversity in the Republic of Uzbekistan for the period of 2019-2028"

5, 2019 No. 737 "on Improving the Environmental Monitoring System in the Republic of Uzbekistan", and in other regulatory-legal documents related to this activity.

